



Axtamova Latofat Erkinjonovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy

Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti talabasi

Annotatsiya: Quyidagi maqolada Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Xo'jayuz mahallasi hududida istiqomat qiluvchi insonlardan savol-javob va o'zaro suhbat asosida yig'ib olingan turli mavzulardagi shevaga oid so'zlardan namunalar keltirilib, adabiy til bilan solishtiriladi, adabiy til va sheva munosabatlari tahlil qilinadi, o'xshash va farqli jihatlar ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: sheva, adabiy til, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or, urf-odat, marosim, o'yin va shu kabilar.

Annotation: This article presents examples of dialectal words on various topics collected through interviews and conversations with residents of the Xo'jayuz neighborhood, Toyloq district, Samarkand region. These dialectal words are compared with the standard Uzbek literary language, the relationship between the literary language and the dialect is analyzed, and their similarities and differences are identified.

Keywords: dialect, literary language, food, clothing, household items, traditions, ceremonies, games, and others.

Аннотация: В данной статье представлены примеры диалектных слов различной тематики, собранных в ходе опросов и бесед с жителями махалли Хўжайўз Тайлакского района Самаркандской области. Диалектные слова сопоставляются с нормами литературного узбекского языка, анализируются взаимоотношения литературного языка и диалекта, а также выявляются их сходства и различия.

Ключевые слова: диалект, литературный язык, продукты питания, одежда, предметы домашнего обихода, традиции, обряды, игры и другие.

Ma'lumki, har bir adabiy til milliy (xalq yoki elat) tilning yuqori bosqichi bo'lib, u normalashgan yoki normalashtirilgan til hisoblanadi. Unga yana shunday ta'rif berish mumki: "Adabiy til leksik jihatdan nisbatan barqaror, fonetik-fonematik va grammatik jihatdan muayyan qolipga tushgan, yagona orfografik va orfoepik normalarga amal qiladigan, so'z ustalari tomonidan sayqal berilgan milliy tilning yuqori bosqichidir.

Shevalar adabiy tilning boyish manbasi hisoblanadi. Shevalar milliy tilimizning asosini tashkil etuvchi yuksak qadriyat bo'lib, u bolalikdan oila a'zolarining til an'anasi tufayli shakllanadi va har bir shaxsning nutqiy imkoniyati bo'lib qoladi. Inson tirik ekan uning shevasi ham o'zi bilan birga yashaydi. Sheva - bu ma'lum bir hudud aholisi so'zlashadigan va boshqalar uchun tushunarsiz bo'lgan og'zaki shakl hisoblanadi. Sheva o'zbek tilining



**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS**

barcha boyligini aks ettiradi, bugungi kunda keksalar tilida saqlanib kelayotgan shevalarni yig'ish va to'plash tilshunoslik fani oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiy til va shevalar turli funksiyalariga ko'ra farqlanadi:

1. Adabiy til davlat, siyosat, fan, san'at tili hisoblanadi, ayni zamonda bu tilda savodxon shaxslar ish ko'radi. Sheva esa muayyan hududda qo'llanadi va shu hududning o'zidagi aholigagina xizmat qiladi.

2. Adabiy til yozma va og'zaki shakllarga ega bo'ladi, sheva esa faqat og'zaki ko'rinishga ega.

3. Adabiy til qat'iy amal qilinadigan normalardan iborat bo'ladi. Sheva ham muayyan hududda o'ziga xos normalarga ega, lekin u unumtil doirasiga chiqa olmaydi.

4. Adabiy tilning funksional uslublari rang-barang, shevalarda bunday uslublarning to'g'risida fikr yuritilmaydi.

5. Adabiy til va shevalar o'rtasida ziddiyatlar bor, lekin ular adabiy tilning boyishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda texnologiyalar rivojlanmoqda, yangi-yangi terminlar kirib kelmoqda va biz bu so'zlarni to'g'ridan-tog'ri o'zgartirishsiz qabul qilyapmiz. Chunki ayrimlar nazdida o'zbek tili boy til emas, u chetdan kelayotgan so'zlarni muqobilini topmasdan iste'molga kiritishga majbur kabi dilni xira qiluvchi gaplar ham yo'q emas. Sheva mana shunday vaziyatda yordamga keladi, chunki insonlar tilida asrlar davomida yashab kelayotgan noyob xazina asl turkiy so'zlar mavjud. Bundan tashqari, adabiy tildagi so'zlar ijtimoiy hayotning barcha sohalari uchun yetarli emas, bu jarayon o'z-o'zidan shevadagi so'zlarni adabiy tilga olib kiradi.

Quyida o'zim istiqomat qiladigan mahalla nuroniylari tilidan yozib olingan bir qancha adabiy tildan leksik jihatdan farq qiluvchi namunalarni keltiraman:

Uy-ro'zg'or buyumlariga oid shevalar:

Sheva	Adabiy til
1. Jag'laq	Tova
2. Chopqi	Kattaroq pichoq
3. Keli	Hovoncha
4. Choydosh	Qumg'on
5. Shibitki	Supurgi
6. Angish	Angishvona
7. Kadi	Oshqovoq





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

8.Julpish	Qo'lda to'qilgan gilamcha
9.Moychova	Yog' solib qo'yiladigan idish
10.Julbaraq	Gilam
11.Dastcho'y	Oftoba
12.Juvak	Urchuq
13.Daskalla	Chopqi
14.Juvoldiz	Ko'rpa qavish uchun igna
15.Tevana	Etikdo'zlar uchun maxsus igna
15.Ixlov	O'qlov
16.Qoxmoq	Qopqoq
17.Grovil	Xaskash
18.Tobba	Qozon
19.Duki	O'tlarni maydalash uchun moslama
20.Sayizxona	Omborxona
21.Naves	Ayvon
22.To'pcha	Kashta tikish uchun ip
23.Mampar	Nonpar
24.Pirmis	Choynak

Kiyim-kechaklar:

Sheva	Adabiy til
1.Xashtepki	Atlas turi
2.Gazvar	Mato
3.Poyjama	Lozim
4.Qalpoq	Do'ppi





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS



5.Ishton	Lozim
6.Tupak	Jamalak
7.Kalish	Kovush
8.Nimtana	Nimcha
9.Halqa	Sirg'a
10.Sarso'zon	Ignatugma
11.Irinka	Ayolar oyoq kiyimi
12.Tapichka	Yozgi oyoq kiyim
13.Lo'litta,lo'labolish	Yostiq
14.Julop	Paypoq
15.Olacha	qo'lda rangli iplardan to'qilgan gilam
16.Telpak	Bosh kiyim
17.Ignasuzak	To'g'nog'ich
18.Zardevol	Devorga osilgan kashta
19.Minsak	A'zalarda ayollarga kiyadigan kiyim
20.Mastakcha	Kichik nimcha
21.Bolimpo'sh	Kashta(ustga yopiladigan)
22.Eshshak atlas	Mato turi

O'yin nomlari:

Sheva	Adabiy til
1.Hakkalamachiq	Arg'amchida sakrash
2.Zapas	To'p urar
3.Halgunchak	Arg'imchoq
4.Huk-duk	Bekinmachoq






MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

5.Pobed	O'yin turi
6.Pobeda	Qog'ozga raqamlarni yozib o'rtaga tushib o'ynash
7.Solay-solay	O'yin turi
8.quvlamachoq	Bolalar yugurib bir-birini quvishadi
9.sancha	Qo'lga tosh olib, otib o'ynash
10.happak	5ta toshni qo'ldan tushirmay osmonga irg'itish
11.galka	Rezinkada sakrash
12.lanka	Tayoqni uzoqqa irg'itish

Oziq-ovqat nomlari:

Sheva	Adabiy til
1.Jutum	Ovqat
2.Uyitqi	Qatiq
3.Kadi	Oshqovoq
4.Churrak	Yupqa non
5.Ko'mak	Dukkakli donlardan tayyorlangan non
6.Barak	Chuchvara
7.Piyova	Go'sht solinmaydigan sho'rva
8.Un osh	Suzmadan tayyorlangan ovqat
9.Sudratma	G'ilmindi
10.Qizilcha	Kartoshkani parrak qilib to'g'rab qizib turgan yog'ga pishirish
11.Shula	Shovla
12.Chakki	Suzma
13.Galbis	Golupsi
14.Suzvoldi	Kulcha





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



15.Chixampli	Ovqat nomi
16.Boyimjon	Baqlajon

Urf-odat va marosimlar:

Sheva	Adabiy til
1.Chuprun to'y	Sunnat to'y
2.Surpa ochar	Bolani sunnat qilishda keksalar surpada un elaydi
3.Nika quymoq	Nikoh o'qimoq
4.Tish ko'rish	To'ydan bir kun oldin qizni uyida keksa ayollar ko'rpacha yotib tish ko'rdim, og'il ekan yoki qiz ekan deb aytishadi.
5.Vakil so'rash	Kuyov va kelinga nikoh o'qilayotganda qiz tog'asinin qizni otaliqqa olishi
6.Chaqirdi	To'ydan keyin kelinning ota uyiga borishi
7.Betochar	Yuzochar
8.Fotiya to'y	Fotiha to'y
9.Xudoyi	A'zadan bir kun o'tib qilinadigan marosim
10.Yil oshi	A'zali uyda vafot etgan odamga bag'ishlab 6 oy yoki 1 yildan keyin qilinadigan marosim
11.Chilla chiqdi	Yangi tug'ilgan chaqaloqning 40kunlik bo'lishi
12.Non sindirish	Keksalar o'rtasida to'y belgilanishi isboti o'laroq ikta non qavat qilib sindiriladi.
13.Ko'rishdi	To'ydan bir kun o'tib kelin qarindoshlarinin turli sovg'a-salom bilan kelishi
14.Hay qilmoq	Unashtirmoq
15.Momo oshi	Eskichadan,ya'ni ko'z teggan insonlarga qon surtib,keksalarni chaqirib o'tkaziladigan marosim
16.Qo'niqli to'y	Sunnat to'yda to'y egasinikiga kelgan mehmonlarning qo'shni uylarda ham mehmon bo'lishi





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

17.Qirq	Odamning vafot etganiga 40 kun bo'lsa o'tkaziladi.
18.Is	Vafot etgan odamlarni xotirlab o'tkaziladi.

Endi nuroniy otaxon va onaxonlar bilan suhbatda ishlatilgan aralash mavzudagi so'zlarni keltirib o'taman.

Sheva

Girdibala
Angar
Chovki
Ganada
Napis
Checha
Jezza
Jilg'inzor
Jo'ng'ichqa
Kirpi
Bejog'im
Gala
Girdi
Gattak
O'lati
Ilgari
Yasli
Yasamoq
Trama
Kurra
Gidikcha
Lapshang
Matal
Miskad
Shum
Qumursqa

Adabiy til

Nimadir
Ekin maydoni
Gulxan
Ba'zida
Mo'rt
Yanga
Pochcha
Butazor
Beda
Tipratikan
Quloqsiz
Hamma
Atrofi
Ozgina
O'limga chidamli
Avval
Bolalar bog'chasi
Urmoq,kaltaklamog
Kuz
Ho'tik
Itni bolasi
Baqa
Ertak
Uzumdan tayyorlangan vino
Ayyor
Chumoli



Yuqorida mahallamizda va qo'shni mahallarda hali ham iste'molda bo'lgan shevaga oid so'zlar jadvali keltirildi.Bu yerda ayrim namunalar keltirdim, xolos,bunday so'zlarni yana ko'plab uchratish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mazkur maqolada aynan bir hududda uchrovchi so'zlardan namunalar keltirilib,ularning ma'nosi,qo'llanilish o'rni hamda adabiy til bilan o'xshash va farqli jihatlari yoritildi.Yurtimizda bir qancha millat va elat vakillari yashashadi.Tasavvur qiling, keksa onaxon, otaxonlarimiz bilan suhbat o'tkazish orqali qanchadan qancha yangi so'zlarni kashf eta olamiz.Bugungi kunda ijtimoiy qatlam adabiy





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tilda gapirishga harakat qilmoqda natijada, bizning eng noyob boyligimiz hisoblangan shevalar yo'qolib bormoqda. Yurtimizda har uchala lahja vakillari(o'g'uz, qipchoq va qarluq) yashashadi, birgina tuxum so'zini olaylik, o'g'uzlar uni yumurta deyishsa, qipchoqlar mayak deyishadi. Bu birgina misol edi, xolos. Demak, so'z boyligimiz qanchalar boy va rang-barang. Shunday ekan xalqning bebaho boyligi hisoblanmish bunday so'zlarni asrash va kelajak avlodga yetkazish har birimizning muhim vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. - T.: Navro'z, 2016. - 139b.
2. Reshetov V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. - T.: O'qituvchi, 1978. - 232b.

Internet saytlari:

3. Wikipedia.org
4. Oefen.uz
5. Arxiv.uz

